



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Shaxnoza Tuychievna  
Tursunkulova**

*SamDU Falsafa va milliy g'oya  
kafedrası dotsenti*

## DIFFERENT ASPECTS OF COMPLEXITY IN THE DOCTRINE OF MYSTICISM.

**Annotatsiya.** Maqolada, tasavvuf ta'limoti murakkablik nazariyalariga ko'ra tahlil etilib, tasavvuf ilmi murakkab ob'ekt sifatida olib qaraldi. Uning paydo bo'lishi, turli oqim va yo'nalishlarga bo'linib ketganligi, mohiyati sinergetik tushuncha va tamoyillar asosida o'rganildi. Tasavvufning ilmiy-falsafiy jihatlari tadqiq etildi.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, tasavvuf ta'limoti, tariqat, murakkablik, tanqidiylik, Yassaviya, Naqshbandiya, Risolai Volidiyya.

**Аннотация.** В статье анализировались учения о мистике в соответствии с теориями сложности и рассматривалась наука о мистике как сложном объекте. Его возникновение, распад на различные течения и направления, сущность изучались на основе синергетических концепций и принципов. Исследованы научно-философские аспекты мистики.

**Ключевые слова:** тасаввуф, учение тасаввуфа, тарикат, сложность, критичность, Яссавия, Накшбандия, Рисолаи Волидийя.

**Annotation.** In the article, the doctrine of mysticism was analyzed according to the theories of complexity, and the science of mysticism was considered to be a complex object. Its appearance, divided into different currents and directions, the essence of which was studied on the basis of synergistic concepts and principles. Scientific and philosophical aspects of mysticism were studied.

**Key words:** mysticism, the doctrine of mysticism, tarikat, complexity, criticism, Yassavia, Nakshbandia, Risolai Validiyya.

### - Kirish (Introduction)

Buyuk ajdodlarimizning yaratishgan ma'naviy xazinalarini o'rganish bo'yicha bugungi kunda juda katta ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ular yaratgan milliy ma'naviy merosni o'rganish, keng ilmiy jamoaga tatbiq etish hamda fundamental tadqiqotlar olib borish uchun ayni damda keng imkoniyatlar mavjud. Falsafa tarixida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy, ilmiy-ma'rifiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim iz qoldirgan tasavvufiy dunyoqarash, tasavvuf falsafasi, tasavvufning ta'limot sifatidagi o'rnini beqiyosdir. O'rta asrlarda shakllangan tasavvufiy qarashlarning ilmiy nazariyalarga aylanishida islom dinining o'rnini katta bo'lgan. Tasavvuf falsafasi – Markaziy Osiyoning o'rta asrlar davrida muhim o'rin tutgan bo'lib, o'ziga xos, sirli va ajib uslublari, maqomlari bilan barcha sohani qamrab olgan o'sha davr kishilarining yirik va uzoq davom etgan hayot yo'li va ijtimoiy tajribalaridir. Tasavvuf ta'limoti bir tomondan diniy xususiyatga ega bo'lib, diniy g'oya va nazariyalarni ilgari sursa, bir tomondan inson va uning komillikka erishuvi, o'zligini anglashi, o'z-o'zini tashkillashtirish darajalari to'g'risidadir.

### - Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Tasavvuf ta'limotini o'rganishda G'arb olimlaridan V.Bartol'd (Mir Alisher va siyosiy hayot.1964) va E.Bertel's (Sufizm va sufiylar adabiyoti.1965.), xorij olimlaridan Jo-Ann Gross, Devin DeWesse, Jurgen Paul, Robert McChesney va boshqalar o'rganishgan hamda bu izlanishlar hozirgacha davom etmoqda. O'zbek olimlaridan, I.I.Mominov, V.Zohidov, M.Baratov, M.M.Xayrullayev hamda N.Komilov, O.Sharafiddinovlar tasavvuf ta'limotini o'rganish zaruriyatini asoslab berganlar. Hozirgi kunda mintaqamiz va o'zbek olimlari ham tasavvuf ta'limotini chuqurroq o'ranish uchun ilmiy tadqiqot ishlari olib borishmoqda.

Tasavvufni o'rganishda tasavvuf mutafakkirlar tomonidan yozilgan asarlar ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Masalan, Muhiddin Ibn Arabiyning "Futuhoyil Makkiya", "Fusulil hikam", "At Tadbiratul ilohiyya", "At Tanazzulatul mavsiliya" asarlari, Mansur Hallojning "Kitobut tавosin", Abdulkarim Jiliyning "Al insonul komil", Faxriddin Iroqiyning "Lamoat", Mavlono Jomiyning "Lavoih" asarlari, Jaloliddin Rumiy, Abduraxmon Jomiy, A.N.Forobiy, Ibn Sino, A.Yassaviy, B.Naqshbandiy, N.Kubro, A.Navoiy, Z.M.Bobur va boshqalarning asarlari tasavvufning falsafiy, ilmiy-nazariy asoslarining yaratilishida muhim rol uynagan.

### - Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tasavvuf ta'limotida murakkablikning barcha xususiyatlari namoyon bo'ladi. Ilm-fanda murakkablik sinergetikaning asosiy tamoyillaridan (murakkablik nazariyasi) biri bo'lib, hozirgi kunda ko'plab tadqiqot ishlarida muammoli ob'ektni o'rganish uchun metodologik ahamiyat kasb etib bormoqda. Murakkablik nazariyasi, beqaror jarayonlarning rivojlanishi natijasida o'z-o'zidan tartibli tuzilmalar paydo bo'lishining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. O'z-o'zini tashkil etish jarayonlari termodinamik jihatdan muvozanatsiz sharoitda tashqaridan materiya va energiya oqimi bilan ta'minlangan holda sodir bo'ladi, ular ko'p sonli elementlardan (tasavvuf tushunchalari, nazariya va tamoyillar, yo'nalish va oqimlar) iborat bo'lib tashkillanadi.

Agar biz tadqiqotimizda, tasavvuf ta'limotini sinergetik yondashuvga asoslanib tahlil etadigan bo'lsak, tasavvufning paradigmal xususiyatlarini yana bir bor e'tirof etgan bo'lamiz, deb o'ylaymiz. Tasavvufda murakkablikni tadqiq etish tasavvufiy dunyoqarashning ikki yoki

ko'pma'noli jihatlari, tariqatlarning ko'ptarmoqli, strukturaviy va tizimli xususiyatlari to'g'risida yanada ko'proq bilimlar beradi. Tasavvuf ta'limoti ham o'z-o'zini tashkillashtiruvchi bir butun tizim sifatida, beqarorlikdan barqarorlikka o'tish, tartib parametrlarining yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Tartib parametri tasavvufda nimani anglatadi? Tasavvufda tartib parametri uning diniy asoslari bilan belgilanadi, ya'ni har bir tariqat islom dinidan ozuqlanadi, uning qonun-qoidalarga qat'iy itoat etganligidir. Murakkab jarayonlarda beqaror ob'ekt bo'ysunish prinsipiga amal qiladi. Tartib parametri va bo'ysunish prinsipi tasavvufni tavsiflashda universal usuldir.

### - Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Tasavvuf ta'limotining mazmun-mohiyati: bilish bosqichlari, komillik darajalari, qonun qoidalari tariqatlarda aks etgan. Tariqatlar esa paydo bo'lishi, asoschilari, umuman olganda falsafasiga ko'ra xilma-xil bo'lib, ular dastlab hududlarga bo'linadi, tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega (ilk, o'rta, so'nggi), yo'nalishlari, shakllari, mutasavvufi, silsilalari, manbalari (badiiy, diniy, ilmiy-nazariy, mistik) va juda ko'p jihatlari bilan xarakterlanadi. Shu tarzda ta'limot kengayib, rivojlanib, murakkablashib boradi. Murakkab ob'ektda ko'ptarmoqlik, ketma-ketlik zanjirining bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi kuzatiladi. Tariqatlar va turli yo'nalishlar, asoschilar (tasavvufiy mutafakkirlar, allomalar)ning faoliyati, ijodi, yaratgan maktablari, shogirdlari, tarixiy makon va zamonda mavjudligi o'z-o'zini tashkillashtirish hodisasidir. Ta'limot o'z-o'zini mana shunday tarzda tashkillashtirib borgan, bu evolyusion rivojlanish jarayoni hamdir.

Tasavvuf ta'limoti islom dini, islom falsafasi, musulmonlar ma'naviyati, axloqi va madaniyati kirib kelishidagi tarixiy jarayonda ijtimoiy muhitni xaotik holatdan tartibli holatga olib kelishda muhim metodologik vosita bo'lib xizmat qilgan. Markaziy Osiyoda Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband va Najmiddin Kubro, Xo'ja Ahror Vali kabi buyuk qalb va meros egalari ana shunday metodologiyani yaratishgan o'z davrining yirik shayxlari, piru-ustozlari, islomshunoslari, ahloqshunoslari, ma'naviyatchilari bo'lib tarix sahifalariga kirgan. Ular yaratgan tariqat hamda ilmu-ma'rifatlar bir qarashda oddiy hodisa bo'lib tuyulsada, lekin strukturaviy xarakteri, shakllanish va e'tiqod qilish ko'lamining kengligiga ko'ra hayratlanarli va o'ta murakkabdir. O'zini, o'zligini anglash, bilimi, ilmi va ma'rifatini shakllantirish kabi komillik sari eltuvchi juda ko'p masalalar bo'yicha yirik va chuqur asoslangan tadqiqotlar olib borgan. Mazkur jarayonning sodir bo'lishi – bu ma'lum holatdan ikkinchisiga o'tish jarayonidir, yoki sinergetik nuqtai nazardan olib qarajak, fazaviy o'tish holatidir.

Tasavvufning iearxik rivojlanish bosqichi, unda yangi g'oya va nazariyalar, qarashlarning yangilanib borishi har bir yangi tariqatning paydo bo'lishi bilan sodir bo'ladi. Masalan, "tarkidunyochilik" va boshqa g'oyalarning keyingi ta'limotlarda yangilanib, "Dilba yoru dast ba kor" g'oyalari, irfoniy, ijtimoiy-siyosiy qarashlar ilgari suriladi. Bu bilan yangi bosqichda, dastlabki g'oya va nazariyalar yadro shaklida bo'lganligini ko'rsatadi. Yangi sifatli bosqich, fazaviy o'tish bu tasavvufiy tafakkurning ta'limotga, tariqatga bo'linishi, tariqatlarning yangilanib borishi yangi shakllarning yuzaga kelishidir. Ya'ni bir holatdan ikkinchi holatga o'tishidir.

Tasavvuf falsafasida deydi, tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov "Inson tarbiyasi, insonni nuqsonlar, gunohlardan qutqarish ulug' ajdod-larimizning qayg'usi bo'lib kelgan. Ular savob va gunoh, soya va nur, rahmon va shayton, xayru sharr chegarasida yaratilgan inson degan mubham xilqatni anglash, unga rahmoniy va shaytoniy quvvatlarni qachon, qaerda kuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanligini tushunishga jiddiy ahd qilganlar".[1.150] Tariqatda Allohni

esdan chiqarmaslikka undaydi, badnafslilik, odobsizlik, adolatsizlik, o'zlikni anglamaslik kabi qator salbiy fazilatlariga qarshi kurashadi, qachonki, mazkur holatni inson o'zida boshqarar ekan holat barqaror bo'ladi, ya'ni, tartibsiz holatdan muayyan tartibli holatga o'tish sodir bo'ladi. Tasavvuf vakillari insonning komillikka yoki ma'rifatga erishishi jarayonini murakkab modellarini ishlab chiqib, amaliy yechimlarni taqdim etadi. Bularning barchasi ularning insonning o'ziga ham, jamiyatga ham tanqidiy ko'z bilan qaraganliklari tufaylidir. J.Xolmo'minovning "Tasavvuf ta'limoti boshida Umaviya xalifaligi davrida yuzaga kelgan g'ayriislomiy tamoyillar dunyoparastlik, boylik, mol-dunyo va aysh-ishratga rujo' qo'yish, irqchilik va millatchilik kayfiyatlari, inson qadr-qiymatining toptalishi natijasida vujudga kelgan e'tiroz shaklidagi ijtimoiy harakat edi", deb yozgani ham tanqidiylikning sababi to'g'risidadir. [2.324]

Tanqidiylik ta'limotda badiiy tarzda yumshoqroq qilib, inson qalbiga nozik ta'sir ko'rsatuvchi usullardan mohirona foydalanib ifodalangan. Ma'lumki, tasavvuf ta'limotida avliyo-anbiyolar qissasi (agiografiya), ma'naviy vorislik shajarasi (genealogiya), hikmatlar, pand-nasihatlari mistik, diniy va dunyoviy nuqtai nazardan ifodalangan. Shuningdek, tasavvufiy dunyoqarashning murakkab tomonlaridan yana birini badiiylik tashkil etadi. Badiiy ijod qilish har qanday kishida ham shakllanmagan. Tasavvufiy manbalarning aksariyati badiiy asar sifatida yozilgan. Bu holat muallifning badiiy ijodiyoti, badiiy ongi-tafakkurini, iste'dodini namoyon qiladi. Tasavvuf manbalari "mualliflari - deydi E.Karimov, o'rta asr o'quvchisi ongiga kuchli ta'sir ko'rsatish maqsadida real va mistik voqealarni qorishtirilgan holdagi badiiy uslublarga maxsus murojaat qilgan bo'lsalar ham ajab emas".[3.12] Darhaqiqat, tasavvufiy ijodkorlar san'at effektini juda yaxshi anglaganlar va so'z san'ati, badiiy adabiyotdan mohirona foydalangan.

Xo'ja Ubaydulloh Ahror o'zining "Risolai Volidiyya" asarida komillik, dil, sevgi, do'stlik, oyna, suhbatlashish kabi tushunchalarni tahlil qiladi, "agar kishi motamzada odamning oldida o'tirsa, u ham g'amgin bo'ladi. Agar shodligi g'olib odamning oldida o'tirsa unda ham shodlikning g'olib sifati yuz beradi. Agar shu ikki sifatli odamlarning har biri bilan o'tirishni davom ettirsa, unda ham shu ikki g'olib sifat paydo bo'ladi va bu dilning komillik qobiliyati tufaylidir. Agar unda bu qobiliyat bo'lmaganda edi, kamolotlarni hosil qilish mumkin bo'lmas edi", deb ta'kidlaydi.[4.16] Insonga ta'sir ko'rsatuvchi har bir holatni o'rganar ekan muallif aytadiki: "Sohibjamol kishining oynani do'st tutishi oyna bo'lgani uchun emas, balki unda o'zini mushohada qilgani uchundir. Demak, aslida U o'zini do'st tutganidir", bu tanqidiylikni o'zini-o'zi tanqid qilish shaklidir. [5.11]

Insonni komillik va ma'rifat sari eltuvchi jarayonda ishtirok etadigan har qanday mayda elementlarga ham e'tiborning qaratilishi masalani yechishning hayotiyiligi, zaruriyati, dolzarbligidir. Inson qanchalik murakkab mavjudot bo'lsa uning ijtimoiyligi, insoniyligini shakllantirish masalasi ham shunchalik murakkabdir. Xo'ja Ahror Vali insonning bir qarashda sodda ammo ichki xususiyatlariga ko'ra murakkab tomonlariga ta'rif bergan. "Oyna" tushunchasi bilan u nafaqat oynadagi insonning o'z aksi xususida fikr yuritmoqda, balki, insonning go'zal va mukammal fazilatlarini to'g'risida gap ketmoqda. Inson doimo "oyna"ni o'zi bilan olib yurishi lozim, chunki, bir ma'noda unga qarab o'zini to'g'rilab qo'yishi, o'zini idora etishi nazarda tutilsa, ikkinchi ma'noda, iste'dod oynasi go'zal bo'lgan mukammal zot va anbiyo-avliyolarning go'zal fazilatlarini ko'rishi, ulardan namuna olishi zarurligini asarda ifodalagan. Insonni go'zal tomonlarini ulug'lab, ko'klarga ko'tarib maqtash mumkindir. Lekin, ana shu go'zal fazilatlarini inson o'zida shakllantirishi ham o'ta mashaqqatli murakkab jarayondir. Demak, ta'limotda tanqidiylik insonning botiniy va zohiriy olamida, umuman barcha narsa va hodisalarda yangiliklarga, o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi.



Tasavvuf ta'limotining murakkabligi yana shundaki, tariqatlar o'zaro aloqadorlikka ham ega, ammo ziddiyatli tomonlari ham mavjuddir. Aloqadorligi shundaki, ularni birinchidan, din va musulmonlik qonun qoidalari birlashtirib turadi, ziddiyatli tomonlari shundaki, shakllangan har bir tariqatda asosiy bosh g'oyasi bo'lgan va bu g'oyaga sodiqlik ularni bir biriga zid bo'lgan qarashlarni ilgari surishga olib borgan. Shakllangan har bir tariqat alohida maqomga ega bo'lsada, ular o'rtasida aloqadorlik ham, ziddiyatli tomonlar ham mavjudligi kuzatiladi. "O'z e'tiqodida sunniy salaf, hanafiy mazhab, moturidiy marom, avliyo maqom bo'lgan Maxdumi A'zam Dahbediyning qarashlari shundan iborat ediki, so'fiy aksariyat hollarda xonaqohda yashashi, faqat xalq, islom va tariqat manfaatini targ'ib qilish uchungina uzoq vaqt xonaqohdan chetga chiqishi mumkin; ul zot tarki dunyochilik va go'shanishinlikni inkor etib, ruhoniyyatli ustoz Hazrati Bahovuddin Naqshbandning "Dast ba kuru dil ba yor" tezisiga amal qilishga chaqirardi; rasmiy e'tirof etilgan "zikri xufiya"ni qattiq himoyalash bilan birga, Yassaviya tariqatining "zikri jahriya" va Kubraviya tariqatining "zikri samo"larini inkor etmas, shu bilan birga musiqiy samo'ni shu tariqatdagilar uchun joizdir, deb hisoblar edi. Bu bilan Maxdumi A'zam "inkor namekunam, in kor namekunam" (boshqa tariqat ishlarini inkor etmayman va bu ishlarni ham qilmayman) tezisiga qat'iy amal qilardi". [6.24]

#### **- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)**

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, tasavvuf ta'limotida, din va musulmonlik, imon, sha'riyat, kalima, salovat, sunnat, karam va haybat, soflash, tavakkul, rahm-shavqat, zikr, himmat, g'ayrat, riyozat, ilm, ma'rifat, chiroyli hulq, latoif, mushohada, fano, tavid, baqo va boshqa ko'plab sistema va elementlar yirik ob'ektlar sifatida tadqiq etilgan. Bu narsa va hodisalarni o'rganish tasavvuf ta'limoti imkoniyatlarini yanada kengaytirgan. Ikkinchidan, ilm, ma'rifatparvarlik, gumanizm, poklik, bunyodkorlik, farovonlik, sog'lomlikka da'vat etuvchi diniy va dunyoviylikka asoslangan yuzlab moddiy-ma'naviy manbalar va faoliyat olib borish uchun maskanlar barpo etilgan. Madrasalarda ta'lim-tarbiya berilgan, kitoblarda esa diniy, dunyoviy, badiiy, ilmiy tafakkur egalarning bilimlari mujassamlashgan. Uchinchidan, tasavvuf ta'limoti konkret shakllangan ko'plab oqim va yo'nalishlarga egaligi, mashhur shayxlar, ilmu-ma'rifat egalari yetishib chiqqanligi va hayotga chuqur kirib borganligi bilan murakkab xarakterga egadir.[7] Murakkablik nuqtai nazaridan ob'ektni tadqiq etish ham hozirgi kunda metodologik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. [8]

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ta'limotini ma'naviy meros sifatida har tomonlama o'rganish, undagi asosiy falsafiy g'oya va nazariyalarning mohiyatini idrok etish va uning pragmatik xususiyatlarini zamonaviy ilmiy yondashuvlarga asoslanib tahlil qilish ta'limot to'g'risidagi bilimlarimizni, ma'lumotlarimizni mazmunan kengaytiradi. Shu sababli, tasavvuf ta'limotining murakkabligi, chalkashliklarga to'la ma'lumotlarini tizimli ekanligini aniqlashtirish, ilmiy izlanishlar olib borish zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. -T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at va "O'zbekiston" nashriyotlari, 1999. -B.150



2. Xolmo‘minov J. Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya ta’limoti (Ibn-al-Arabiy, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy va Mavlono Abdurahmon Jomiy qarashlari asosida). Monografiya. / Mas’ul muharrir: N.Jo‘raev. - T.: “Tafakkur”, 2020. -324 bet.
3. Karimov E. Xo‘ja Ahror hayoti va faoliyati. Ma’naviyat., -T.: 2003. 12-b.
4. Xoja Ubaydulloh Ahror. Risolai Volidiyya. T.: Yangi asr avlodi. 2004. 16-b.
5. Qarang o‘sha manba. 11-b.
6. Kattayev K. Mahdumi A’zam tarixi va mukammal Dahbediyalar tariqati. T. MASHHUR-PRESS, 2016. 24-b.
7. Tursunkulova, Sh. T. Complicated features and theoretical basis of forming person’s esthetic consciousness / Sh. T. Tursunkulova // Theoretical & Applied Science. – 2021. – No 5(97). – P. 178-183.
8. ТУЙЧИЕВНА, Т. С. (2022). Markaziy Osiyoda tasavvufiy tafakkur rivoji: nazariy asoslari va muammolari. *Международный журнал философских исследований и социальных наук*, 1(5), 40-45. Извлечено из <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/139>